

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

1-SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
1-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович <i>Дунёдаги демографик ривожланиш ҳолати ва истиқболлари.....</i>	4
Xudoykulov Sadirdin Karimovich, Abdurahimov Sarvar Nasrilloevich <i>Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush tarzini yaxshilash — farovon hayot demakdir.....</i>	18
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Musayev Bekzod Murodovich <i>Mirzacho'l iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari.....</i>	29
Мамадалиева Хафиза Холдаровна <i>Демографическое развитие и его влияние на экономический рост страны: теоретический и эмпирический анализ.....</i>	38
Abdullayev Asliddin Jumaydullayevich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Enhancing educational effectiveness through the application of innovative communication marketing strategies in higher education institutions.....</i>	49
Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>The role of industrial greening in ensuring economic stability in our country.....</i>	63
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Omanova Kamola Botir qizi <i>Jizzax viloyati qishloq aholi manzilgohlari joylanishining geografik xususiyatlari (turlari va shakllari).....</i>	73
Shakarov Zafar Gafforovich <i>Иш жойлари мониторинги амалга оширишнинг хорижий давлатлар тажрибалари.....</i>	82
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Leveraging marketing strategies to boost national economic competitiveness.....</i>	91
Sherxolov Olimjon Iskandarovich, Musayev Bekzod Murodovich <i>Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi.....</i>	100
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari.....</i>	107
Asqarova Muhabbat Ibraximovna <i>Hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondoshuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish...</i>	116
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich, Dustmurodov Diyorbek Xo'dayor o'g'li <i>Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy strategiyani shakllantirish.....</i>	125
Нуманова Мадина Латиф қизи <i>Инсон капитали ва барқарор ўсиш: Ўзбекистон ҳудудларининг рақобатбардошлигини оширишдаги роли.....</i>	131
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li <i>Yaponiyada uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati va uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari.....</i>	143
Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna <i>Ta'limda modulli o'qitish texnologiyasi.....</i>	151
Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi <i>Kompyuter jinoyatlari va kiberxavfsizlik: raqamli jamiyatda huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar.....</i>	156
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>Mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish choralari.....</i>	165
Yunusova Ug'iloy Bolqiboy qizi <i>Ovqatlanish korxonalarida ofitsantlar xizmat sifatini oshirish.....</i>	172

TA'LIMDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi

Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman

2-son kasb hunar maktabi Informatika va AT fan o'qituvchisi

E-mail: ibragimova@gmail.com

Annotatsiya: Respublikamizda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tub islohotlar, pirovard natijada jahon talablari darajasidagi bilim va malakalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarida rivojlangan davlatlar tajribasidan o'rganilgan bilim va malakalar tizimi o'zining ijodiy aksini topmoqda. Ushbu tizimda kasbiy ko'nikmalari ham o'zining ahamiyati va ko'lami bilan muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Davlat, ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy, Modulli o'qitish.

МОДУЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ

Ибрагимову Мехрангиз Исомиддиновну

Министерство высшего образования, науки и

инноваций Республики Узбекистан

Бухарское областное территориальное управление

Гиждуванского района преподавателя информатики и

информационных технологий профессиональной школы No 2

Аннотация: Коренные реформы, направленные на повышение качества образования в нашей республике, в конечном итоге предусматривают подготовку конкурентоспособных кадров, обладающих знаниями и навыками на уровне мировых требований. Система знаний и навыков, изученных из опыта развитых стран, находит свое творческое отражение в Государственных образовательных стандартах, учебных планах и программах, разработанных для реализации этих задач. В этой системе профессиональные навыки также занимают важное место по своему значению и масштабу.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Государство, образование, социально-экономическое, Модульное обучение.

MODULE TEACHING TECHNOLOGY IN EDUCATION

Ibragimova Mekhrangiz Isomiddinovna
Ministry of Higher Education, Science and
Innovation of the Republic of Uzbekistan
Bukhara Regional Territorial Administration,
Gijduvan District Informatics and IT teacher
Of Vocational School No. 2

Abstract: Fundamental reforms aimed at improving the quality of education in our republic ultimately provide for the training of competitive personnel with knowledge and skills at the level of world requirements. The system of knowledge and skills learned from the experience of developed countries is creatively reflected in the State Educational Standards, curricula, and programs developed for the implementation of these tasks. In this system, professional skills also occupy an important place due to their importance and scale.

Keywords: Republic of Uzbekistan, State, Education, Socio-Economic, Modular Training.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda [2].

Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan bakalavrlarni, ayniqsa, kasb-xunar kollejlarda o'rgatuvchi o'qituvchi-tarbiyachilarni tayyorlash jarayoni oliy o'quv yurtlarida o'ziga xos shart-sharoitni talab qilish bilan birgalikda, fanlararo aloqadorlik xamda izchillik tamoyiliga tayangan xolda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi sharoitni yuzaga keltirishni taqozo qiladi. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati deganda taqqoslash va o'rganish orqali amaldagi o'z pedagogik faoliyatini anglash, yanada yuqori natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini o'zgartirish va rivojlantirish, yangi bilim, boshqa bir sifatdagi pedagogik tajribaga ega bo'lishdagi faoliyati tushuniladi. Innovatsion pedagogik faoliyat doirasida ta'lim

oluvchilarni tushunish, unga ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirishga bo'lgan yangicha falsafiy-pedagogik, psixologik-pedagogik yondashuvlar; ta'lim mazmuni va metodlarini qo'llashning yangi kontseptual pedagogik g'oyalari amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar.

Texnik fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarining matematika va tabiiy fanlar, ijtimoiy-iqtisodiy xamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o'rganishlari talabalarning bevosita kasbiy ko'nikma va malakalarining shakllanishida muxim omil bo'lib hizmat kiladi. SHu ma'noda, har bir mutaxassislik fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tib borish jarayonida mutaxassislik tushunchalarining o'rni, uni bayon qilish zaruriyati, ketma-ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi va aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor) va boshqa xossalarga bo'ysunishiga qarab, har bir talabaning o'zini qanday salohiyati bilan qatnashayotganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Har bir fan o'qituvchisi talabalarni nafaqat shu fan doirasida mavjud bo'lgan ilmiy ma'lumotlar bilan qurollantirishi, balki ular egallagan ilmiy tushunchalarni rivojlantirishi va boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta'minlashi, xamda talabalarni milliy kadriyatlar ruhida tarbiyalashi lozim. SHuning uchun xam har bir o'qituvchi-olim navbatdagi o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishida o'quv materialini yuqorida sanab o'tilgan talablar va tamoyillarga rioya qilgan holda tanlashi va uni talabalar e'tiboriga havola qilishida tegishli parametrlardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maxsus fanlarni o'qitishga doir o'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda modulli o'qitish texnologiyasi yaxshi natija beradi.

Ta'limini rivojlantirishning samarali yo'nalishlaridan biri – fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishdir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan, ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda talabalar faoliyati orqali ifodalanib, bevosita kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli ta'lim pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda. Modul so'zining asl ma'nosi "model" (frants. modele - namuna, lotincha – modulus – o'lchov) shartli obraz (ko'rgazma, sxema va b.q.) ya'ni ob'ekt yoki ob'ekтли tizim ma'nolarini

bildiradi. Umumiy ma'noda modul texnologiyasini o'qitishda ko'rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin.

“Modulli o'qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi [11].

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi butun jahon kontseptsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi – funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik-psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi [22, 23].

Modul fanning fundamental tushunchalarini – ma'lum hodisa yoki qonun, yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi.

Modulli texnologiya dastlab kasbiy fanlarni o'qitish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, endilikda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda xorijiy tillarni, tarix, tibbiyot fanlarini ham o'qitishda modulli texnologiyadan foydalanish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonning o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Modulli o'qitish o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida yangi elementlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Natijada mazkur texnologiyaning yangidan-yangi qirralari kashf etilib, turli fanlarni o'qitishda qo'llanilmoqda.

2. Modulli texnologiyani boshqa ta'lim texnologiyalari bilan birgalikda qo'llash imkoniyatlarining kengligi. So'nggi paytlarda modulli ta'limning boshqa o'qitish texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi natijasida pedagogikada «muammoli-modulli», «blokli-modulli o'qitish», «modulli-rivojlantiruvchi ta'lim» kabi tutash texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Bu ham modulli ta'lim imkoniyatlarining kengayishiga hamda uning turli fanlarni o'qitishda safarbar etilishiga olib keladi.

Хулоса.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar uning samaradorligini ta'minlash, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab etishtirishga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim tizimini

rivojlantirishga yoʻnaltirilgandir. Oʻzbekiston Respublikasida uzluksiz taʼlim muassasalari oʻquv faoliyatiga modulli taʼlim tizimini tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslarini tadqiq qilish taʼlim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyatini taʼminlaydi. Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalari oʻquv jarayoniga modulli oʻqitish tizimni tatbiq etish dolzarb masala boʻlib, bu borada bir qator muammolar mavjuddir. Ushbu muammolarning ijobiy hal etilishi pedagogik faoliyatning sifat va samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev. 2017—2021 yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi, T.: “Oʻzbekiston”, 2017.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 1992. – 46 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Kitob: Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq, 1997. 32-61 b.
4. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Taʼlim toʻgʻrisida. Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq, 1997. 20-29 b.
5. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy oʻqitish texnologiyalari. – Toshkent: Muallif, 2001. – 88 b.
6. Russell, James D. Modular instruction. – Minneapolis, Minn., Burgess Publishing Co., 1974
7. Skinner B.F. The technology of Teaching. – New York, Appleton-Centery Grofts, 1968.
8. Goldshmidt V., Goldshmidt M. Modular Instruction in Higher Education // Higher Education. - 1972. - № 2. - P. 15-32.
9. Development of "Green economy" in the sectors of the economy and its prospects SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337
10. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SN Burxonov O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

